

YANGI DIAGNOSTIK SHKALA VA ALGORITMLAR LOR-SHIKASTLANISHLARNI BAHOLASHDA

Abdumalikov I.M.

Annotatsiya: Dissertatsiya tadqiqotida LOR a'zolari jarohatlarini baholash uchun diagnostik shkalalar va algoritmlar ishlab chiqildi. Takomillashtirilgan klinik-morfologik shkala jarohatlangan joyni xususiyati va funksional buzilishlar darajasini hisobga olgan holda shikastlanish og'irligini miqdoriy aniqlash imkonini beradi. Jarohat davomiyligini baholash algoritmi morfologik o'zgarishlarning bosqichlariga asoslangan: erta (1-3 kun), oraliq (4-14 kun) va kech (14 kundan ortiq) davr, bunda 3 haftadan so'ng suyak qadog'ining shakllanishi rentgenologik belgi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvlarni qo'llash sud-tibbiy ekspertizaning aniqligini va xolisligini oshiradi.

Kalit so'zlar: diagnostik shkalalar; algoritmlar; jarohat davomiyligi; klinik-morfologik baholash; LOR-ekspertiza

Аннотация: В диссертационном исследовании разработаны диагностические шкалы и алгоритмы для оценки травм ЛОР-органов. Модифицированная клинко-морфологическая шкала позволяет количественно определить тяжесть повреждений с учётом характера травмы и степени функциональных нарушений. Алгоритм оценки давности основан на фазах морфологических изменений: ранней (1–3 сутки), промежуточной (4–14) и поздней (>14), при этом формирование костной мозоли через 3 недели рассматривается как рентгенологический признак. Использование этих подходов повышает точность и объективность судебно-медицинской экспертизы.

Ключевые слова: диагностические шкалы; алгоритмы; давность травмы; клинко-морфологическая оценка; ЛОР-экспертiza

Abstract: The dissertation research developed diagnostic scales and algorithms for the assessment of ENT injuries. A modified clinical-morphological scale provides a quantitative evaluation of injury severity, taking into account the nature of trauma and the degree of functional impairment. The algorithm for estimating the age of injury is based on the phases of morphological changes: early (1–3 days), intermediate (4–14 days), and late (>14 days), with the appearance of callus after three weeks serving as a reliable radiological indicator. The application of these approaches enhances the accuracy and objectivity of forensic medical examinations.

Keywords: diagnostic scales; algorithms; injury timing; clinical-morphological assessment; ENT forensics.

Kirish. Sud-tibbiy amaliyotda LOR-sohasiga oid shikastlanishlar sonining ortib borayotgani fonida ularning baholash mezonlarini takomillashtirish dolzarblik kasb etmoqda. An'anaviy ekspertiza yondashuvlarida asosiy urg'u anatomik nuqsonlarga qaratilgan bo'lsa-da, zamonaviy ilmiy manbalar LOR-shikastlanishlarda funksional buzilishlarning (nafas olish, eshitish, hid bilish, tovush hosil qilish) jiddiy oqibatlariga olib kelishini ta'kidlamogda [1,2].

Xususan, burun to'sig'ining siljishi bilan kechuvchi sinishlar nafas yo'llari orqali havo o'tishini sezilarli darajada buzadi, bu esa nafaqat hayot sifati, balki yurak-qon tomir va asab tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [3]. Shu bois, LOR-shikastlanishlar holatida faqat morfologik belgilar emas, balki funksional holatni baholovchi mezonlar ham ekspert xulosasida aks etishi zarur [4].

Tadqiqot maqsadi. LOR-sohasidagi shikastlanishlarni kompleks baholash uchun diagnostik shkala va funksional dinamikaga asoslangan algoritmlarni ishlab chiqish.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot davomida 2023–2024 yillarda aniqlangan 127 nafar bemorning klinik, rinoendoskopik, rinomanometrik va rentgenologik natijalari tahlil qilindi.

Shikastlanish bosqichlari morfologik belgilar asosida 3 guruhga ajratildi: erta (1–3 sutka), oraliq (4–14 sutka) va kech (14 kundan ortiq). Shu bilan birga, tovush funksiyasi bo'yicha stroboskopik tahlil va audiometriya ma'lumotlari jamlangan.

Asosiy natijalar. Tadqiqot natijasida modifikatsiyalangan kliniko-morfologik balli shkala ishlab chiqildi. Unda anatomik shikastlanish darajasi bilan bir qatorda, funksional buzilish (nafas oqimi qarshiligi, eshitish chegarasi, fonatsion parametrlari) ballar orqali baholandi.

Shuningdek, shikastlanishdan o'tgan vaqtni morfologik bosqichlar asosida aniqlovchi algoritmlar taklif qilindi. Masalan, burun suyagi sinishidan keyingi 3 haftadan so'ng kallus shakllanishi kechki davr belgisi sifatida rentgenologik jihatdan qayd etildi [5].

Xulosa. Mazkur diagnostik yondashuvlar LOR-shikastlanishlarni baholashda ob'ektivlikni oshiradi, ekspertiza xulosalarining takrorlanuvchanligini ta'minlaydi hamda reabilitatsion chora-tadbirlarni aniqlashda amaliy yordam beradi. Shkala va algoritmlar sud-tibbiy baholashni standartlashtirishga xizmat qiladi, tibbiy-huquqiy nizolarda ekspert pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar:

1. Khvan V.M. Sudebno-meditinskaya ekspertiza povrezhdeniy organov LOR-kompleksa. – M.: GEOTAR-Media, 2019. – 276 s.
2. Zaslavskiy A.I., Chibisov A.V. Kompleksnaya otsenka ushcheba pri travmakh nosa i gortani // Vestnik otorinolaringologii. – 2022. – №3. – S. 14–18.
3. Iginov N.S., Yusupov B.T. Sud-tibbiy ekspertizani tashkil etish. – Toshkent: Ijtimoiy salomatlik nashriyoti, 2020. – 224 b.
4. Turakulov K.T., Abdullayeva N.N. Rinomanometriyaning sud-tibbiy baholashdagi o'rni // O'zbekiston tibbiyoti jurnali. – 2023. – №4. – B. 72–76.
5. Abdurakhmanov M.R. Radiologiya va LOR-shikastlanishlar ekspertizasi. – Samarqand: SamMI, 2021. – 118 b.